

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

MATQOSIMOV MUHAMMADSODIQ MAHAMADXOSHM O‘G‘LI

**MIKROGES ASINXRON GENERATORNI DINAMIK ISH
REJIMLARINI MODELLASHTIRISH**

**05.05.02 – Elektrotexnika. Elektr energiya stansiyalari, tizimlari. Elektrotexnik
majmualar va qurilmalar**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Matqosimov Muhammadsodiq Mahamadxoshim o‘g‘li MikroGES asinxron generatorni dinamik ish rejimlarini modellashtirish.....	5
Маткосимов Мухаммадсодик Махамадхашим угли Моделирование динамических режимов работы асинхронного генератора микроГЭС.....	23
Matqosimov Muhammadsodiq Mahamadxoshim o‘g‘li Simulation of dynamic modes of operation of an asynchronous generator of micro hydroelectric power plants.....	43
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works.....	47

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

MATQOSIMOV MUHAMMADSODIQ MAHAMADXOSHI O‘G‘LI

**MIKROGES ASINXRON GENERATORNI DINAMIK ISH
REJIMLARINI MODELLASHTIRISH**

**05.05.02 – Elektrotexnika. Elektr energiya stansiyalari, tizimlari. Elektrotexnik
majmualar va qurilmalar**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3. PhD/T3943 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon mashinasozlik institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tstu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Berdiyev Usan Turdiyevich
texnika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Bedritskiy Ivan Mixaylovich.
texnika fanlari doktori professor

Shavazov Abdulatif Achilovich
DSc, k.i.x

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil « ____ » _____ soat dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lichilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqami bilan ro'yxatga olingan). (100167, Toshkent sh., Temiryo'lichilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil « ____ » _____ dagi № ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

R.V. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

Y.O. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

R.M. Mirsaatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishi va insoniyat ehtiyojlarining ortib borishi natijasida elektr energiyasiga bo'lgan talab jadal suratlarda oshib bormoqda. Bu jarayon Rossiya, AQSH, Norvegiya, Fransiya va Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda ham yaqqol kuzatilmoqda. Talabning uzluksiz ortib borishi tufayli elektr energiyasini nafaqat ishlab chiqarish, balki uni uzatish tizimlarida ham turli muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etishda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, shuningdek, mini va mikroGESlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Elektr energiya ishlab chiqarish va uni avtonom iste'molchilarga yetkazib berish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jahonda elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojning kundan-kunga ortib borishi natijasida elektr energiya ishlab chiqarish jarayonining arzon va sifatli bo'lishi dolzarb masalaga aylanmoqda. Elektr energiyasi kashf qilinganidan beri unga bo'lgan talab doimiy ravishda oshib kelmoqda, bu esa uni ishlab chiqarishning ahamiyatini yanada oshiradi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishida, elektr energiyasini ishlab chiqarish jarayonini sodda va qulay usullar orqali amalga oshirishga qaratilgan. Buning natijasida elektr energiyasining tannarxi pasayadi, bu esa mamlakatimizda mikroGES (mikrohidroelektr stansiyalar) sonining ko'payishiga zamin yaratadi. MikroGES qurilishida suv omborlarining ekologik zararlarini kamaytirish, stansiyalarni qurishda kichik kapital xarajatlarni talab qilish, shuningdek, bu xarajatlarni qisqa muddat ichida qoplash imkoniyatlarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish olib borilayotgan tadqiqotlarning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Respublikamizda energiya ta'minot tizimlari yordamida turli xildagi iste'molchilarga doimiy elektr energiyasini yetkazib berish borasida muammolar mavjud. Ayni shuning uchun ham gidroelektr stansiyalar qurishni imkoniyatlari cheklanganligi, elektr tarmoq tizmalarini yangilash zarurligi, uzoq masofadagi kichik aholi punktlarini elektr energiyasini yuqori kuchlanish tarmoqlari orqali ta'minlash texnik iqtisodiy jihatdan nomaqbul hisoblanadi. Adirlik, balandliklar yonbag'rida suv oqim tezligi mavjud bo'lgan uzoq chekka hududlarda joylashgan kichik quvvatli iste'molchilarni elektr energiya bilan ta'minlashda, irmoq va daryolarga o'rnatilishi mumkin bo'lgan, kichik mikroGESlar yordamida ishlab chiqariladigan elektr energiyasini avtonom tarmoq orqali yetkazib berish imkoniyatini yaratadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish suratlarni ta'minlash" deb nomlangan uchinchi bo'limining 22-maqsadida belgilangan vazifalarni bajarish asosida, 2030-yilga qadar gidroenergetikaning umumiy quvvatini 4999 MVtga yetkazish, shu bilan birga jamiyat tomonidan qo'shimcha 2311 MVt, xususiy investorlar ishtirokida esa, 615 MVt quvvatlarni yaratishda, qayta tiklanuvchan manbalari hamda mini va mikroGESlarni qurish, mikroGESlardan foydalanishda asinxron generator tuzilishi jihatdan soddaligi, ekspluatatsiya qilish osonligi va tannarxining arzonligini hisobga olgan holda, dinamik ish rejimlarini tadqiq etish borasidagi dolzarb masalalarning yechimiga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib

borish muhim hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” Farmoni, 18 - maydagi “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati faoliyatini tashkillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2972-sonli qarori.¹ 2022-yil 9-sentabrdagi “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-220-sonli farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevrlardagi PQ-57-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlashda va mazkur faoliyatga tegishli barcha me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur olib borilgan tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurslar tejamkorligi” rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. MikroGESlarda qo‘llaniluvchi asinxron generatorlarni kondensator elementlarini qo‘llash orqali ishga tushirish va shu bilan birga qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan oqilona foydalangan holda, elektr energiya ishlab chiqarish hamda aholiga yetkazib berish borasida ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mini va mikroGESlar yordamida elektr energiya ishlab chiqarish bilan birga uni boshqarish borasidagi tadqiqot yo‘nalishida chet el olimlaridan; jumladan Shimoliy Amerika mamlakatida; Luis Vazquez, Henry Bory, Jose L. Martin, Inigo Martinez de Alegri, Fajril Akbar, Refdinal Nazir va bir qancha olimlar o‘z xissalarini qo‘shganlar.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida; Elisabeta Erina, Toma Dordea, Aurel Campeanu, Ion Gh. Piroi, Ion Vlad va boshqa olimlar tadqiqot olib borganlar.

Janubi-sharqiy Osiyo davlatlarida; Andi Pawawoi, Syaiful Bakhri, Seflahir Dinata, Jong-Suk. Ro, S.S.Murthy, A.K. Tandon va boshqalar olimlar salmoqli ishlarni bajarganlar.

MDH davlatlarida; A.Z.R.Djenubayev, B.V.Lukutin, D.A.Padalko, G.A.Siypalov, L.Simonov, N.D.Toropsev, N.I.Sokolov, V.A.Pivovarov, Ya.A. Ilchenko, Yu.D.Zubkov, A.A.Novkunskiy, va boshqa bir qancha taniqli olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Shuningdek, mamlakatimizning taniqli olimlaridan Q.R. Allayev, P.P. Zimakov, A.F. An, K.T.Alimxodjayev, N.B.Pirmatov, O.Z.Toirov, D.B.Qodirov, S.J.Haydarov, K.X. Kurboniyozov kabi olimlar mazkur tadqiqot yo‘nalishida o‘zining katta ilmiy hissalarini qo‘shdilar. Bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar kichik va mikroGESlar imkoniyatlarini baholash, ularni ishlatish, uning quvvat koeffitsiyentlarini oshirish va elektr energiyasini ishlab chiqarishga qaratilgan. Biroq, sezilarli muvaffaqiyatlarga qaramay, mikroGESlarda qo‘llaniluvchi asinxron generatorlarining dinamik ish rejimlaridagi chiqish kuchlanishlarini rostdashni tadqiq etish holatlari yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu bois, mikroGESlarda qo‘llaniluvchi kondensator elementlari

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” farmoni

ishlab chiqarayotgan reaktiv quvvatini ventilli elementlar yordamida rostdash orqali asinxron generatorning dinamik ish rejimlari vaqtida chiqish kuchlanishlarini boshqarish usulini ishlab chiqish zarurati mavjud.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon mashinasozlik institutining quyidagi xo'jalik korxonalari bilan tuzilgan "Korxonalarda energoaudit tekshiruvlarni olib borish" mavzusidagi №2020-19 "Andijon Biokimyov Zavodi" AJ korxonasi bilan tuzilgan xo'jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi MikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorning dinamik ish rejimlari vaqtidagi chiqish kuchlanishi rostdash metodikasini takomillashtirish va tadqiq etish hisoblanadi.

Tadqiqot vazifalari:

avtonom mikroSESlarda qo'llaniluvchi kondensator ishlab chiqarayotgan reaktiv energiyani ventilli elementlar yordamida rostdash orqali boshqariluvchi asinxron generatorning matematik modelini takomillashtirish;

mikroGESlarda qo'llaniluvchi kondensator orqali qo'zg'atiladigan asinxron generatorning dinamik ish rejimlarida turg'unlikni ta'minlovchi algoritmi va boshqarish sxemasini takomillashtirish;

mikroGESlarda qo'llaniluvchi kondensator orqali qo'zg'atiladigan asinxron generatorning dinamik ish rejimlarini tahlil qilish imkonini beruvchi imitatsion modelini ishlab chiqish;

avtonom mikroGESlarda qo'llaniluvchi kondensator orqali qo'zg'atiladigan asinxron generatorning dinamik ish rejimlarini kondensatorida ishlab chiqarilayotgan reaktiv energiyani rostdash asosida generatorning chiqishidagi kuchlanishini boshqarish usulini takomillashtirish hamda mikroGES qurilmasini tajriba-sinov nusxasini yaratish.

Tadqiqot obyekti sifatida mikroGESlarda qo'llaniluvchi kondensator elementi orqali qo'zg'atiladigan asinxron generator olingan.

Tadqiqot predmeti mikroGESlarda qo'llaniluvchi kondensator elementi orqali qo'zg'atiladigan asinxron generator dinamik ish rejimlari, parametrlari va xarakteristikalari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida asinxron generatorlarning dinamik ish rejimlarini matematik modellashtirish, avtomatik boshqarish nazariyasini Droop boshqaruv metodikasining kuchlanishlar tushuvini rostdash usuli, Adaptiv boshqaruv metodikasining o'z-o'zini rostdash usuli, PID (Proporsional-Integral-Differensial) boshqaruv metodikasining Ziegler-Nikolas usuli, Matlab/Simulink dasturi yordamida imitatsion modelini ishlab chiqish, eksperimental ma'lumotlarni qayta ishlashda matematik statistika usullari, zamonaviy raqamli ossillograf CASSY Lab 2 dasturi yordamida fizik modelning ish rejimlarini tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

avtonom mikroGESlarda qo'llaniluvchi qo'zg'atuvchi kondensator elementlari ishlab chiqarayotgan reaktiv quvvatni ventilli elementlar yordamida rostdash orqali, boshqariluvchi asinxron generatorning klassik matematik model takomillashtirilgan.

mikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorining nominal, kuchlanishlar nosimmetriyasi hamda o'ta yuklama ish rejimi vaqtidagi chiqish kuchlanishini Droop boshqaruv, Adaptiv va PID boshqaruv metodikasining kuchlanishlarni rostlash usullari yordamida boshqaruv algoritmi takomillashtirilgan.

mikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorining dinamik ish rejimlari vaqtida rostlash qurilmasiga kiruvchi va chiquvchi kuchlanish parametrlarini hisobga olgan holda tahlil qilish imkonini beruvchi imitatsion model takomillashtirilgan.

mikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorining nominal, kuchlanishlar nosimmetriyasi va o'ta yuklama ish rejimlari vaqtida chiqish kuchlanishini kondensator elementlari ishlab chiqarayotgan reaktiv quvvatni tiristor elementlari hisobiga rostlanishi takomillashtirilgan boshqarish sxemasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

mikroGESlarda qo'llaniluvchi kondensator orqali qo'zg'atiladigan asinxron generatorning fizik modeli ishlab chiqilgan;

mikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorining dinamik ish rejim-laridagi elektrik parametrlarini rostlash metodikasi takomillashtirilgan;

mikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorni real vaqt davomida dinamik ish rejimining hisoblashining dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan;

mikroGESlarda qo'llaniluvchi kondensator orqali qo'zg'atiladigan asinxron generatorning dinamik ish rejimlarida stator chiqishidagi kuchlanish qiymatini nazoratini ta'minlovchi boshqarish sxemasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarning ishonchliligi mikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorlarni kondensator elementlari yordamida qo'zg'atish usuli takomillashtirilgan, dinamik ish rejimlarini rostlashda avtomatik rostlash usullaridan foydalanilgan holda boshqaruv algoritmi bilan birgalikda boshqaruv sxemasi ishlab chiqilganligi, matematik modellashtirish usullarining qo'llanilganligi, dinamik va texnik tavsiflari asosida olingan nazariy va amaliy tadqiqotlar tajriba-sinov qurilmasi yordamida o'tkazilgan, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o'zaro adekvatligi, umum qabul qilingan mezonlar asosida qiyosiy solishtirish orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorlarni ishga tushirish va elektr energiya ishlab chiqarish asosida, mikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorlarni kondensator elementlari yordamida qo'zg'atish tizimini takomillashtirish, dinamik ish rejimlarini, matematik modellar va algoritmini bog'lanishlarini boshqa turdosh qurilma parametrlarini asoslashda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati energiya resurslari sarfini kamaytirishga erishishda, ishonchli muqobil energiya manbaidan foydalangan holda elektr energiya ishlab chiqarish, chekka va tog' oldi hududlarida elektr energiya yetishmovchiligini oldini olishga hissa qo'shish uchun avtonom mikroGESlarda qo'llaniluvchi kondensator orqali qo'zg'atiluvchi asinxron generatorining dinamik ish rejimlaridagi chiqish kuchlanishlarini taklif etilayotgan boshqaruv usullarini amaliyotda qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. MikroGES asinxron generatorni dinamik ish rejimlarini modellashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot asosida:

mikroGES asinxron generatori reaktiv quvvatini ventilli elementlar yordamida rostdash uchun ishlab chiqilgan namunaviy qurilma "AGRO PRODSTAR" fermer xo'jaligida elektr energiya bilan ta'minlash uchun joriy etilgan ("O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari" kengashining 2023-yil 28-fevraldagi 01-03-0440–son ma'lumotnomasi). Natijada avtonom iste'molchilarni talabiga mos holda mikroGESda qo'llanilgan asinxron generatorlar dinamik ish rejimlaridagi chiqish kuchlanishini doimiy nazorat va boshqargan holda elektr energiyasi bilan ta'minlash imkoniyati yaratilgan;

asinxron generatorning dinamik ish rejimlaridagi chiqish kuchlanishini boshqarish uchun ishlab chiqilgan takomillashgan usullar "AGRO PRODSTAR" fermer xo'jaligida elektr energiya bilan ta'minlash uchun joriy etilgan ("O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari" kengashining 2023-yil 28-fevraldagi 01-03-0440–son ma'lumotnomasi). Natijada mikroGES asinxron generatorni dinamik ish rejimlarini modellashtirish bo'yicha o'tkazilgan ilmiy-texnik chora-tadbirlar asosida iqtisodiy samaradorlik 109 000 000 (bir yuz to'qqiz million) so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy natijalari 3 ta xalqaro konferensiyalarda, shundan 1 ta Scopus bazasiga kiritilgan, 2 ta xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy–amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot ishi mavzusi doirasida jami 23 ta ilmiy ishlar, ulardan 3 ta Scopus bazasiga kiritilgan to'plamlarda, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan 3 ta xorijiy, 6 ta respublika miqyosidagi jurnallarda chop etilgan, 6 ta xalqaro va respublika miqyosidagi to'plamlarda chop etilgan, 4 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomalari olingan va 1 ta foydali modelga talabnoma topshirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqot maqsadi va vazifalari aniqlangan, tadqiqot ob'ekti va predmeti yoritilgan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ishonchliligi asoslangan, ilmiy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish ma'lumotlari olingan, tadqiqot ishining aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar bo'yicha ma'lumotlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Asinxron generatorning mikroGESlarda qo'llanilishi tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida energiya tanqisligini kamaytirish maqsadida kichik gidroenergetikadan foydalanish, kichik gidroenergetikani vazifasi elektr energiya ishlab chiqarish ob'ektlarini iste'molchilarga yaqinlashtirish va elektr uzatish tarmoqlarida energiya isroflarini kamaytirish, natijada uzoq masofadagi elektr energiya

iste'molchilarini avtonom elektr energiyasi manbai yordamida ta'minlash orqali chekka va tog' oldi hududlarga yoqilg'i energiyasini yetkazib berish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Hozirgi kunda energetikaning qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalangan holda sof tannarxi arzon bo'lgan elektr energiya ishlab chiqarish ustuvor va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Birinchi bobda mikroGESlardan foydalanish tahlili, shuningdek dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning "**MikroGESlarda qo'llaniladigan gidroturbinalar tahlili**" deb nomlangan ikkinchi bobida suv ombori, bosimli suv quvur tizimi va gidroenergetik agregatdan tashkil topgan, mikroGES tuzilmasi ko'rsatilgan hamda gidroturbinani tanlash, turli xil turbinalar tizimlarini taqqoslash, mikroGESning global rivojlanish holatini ko'rib chiqish, kovshli gidroturbinani matematik modelini tuzishni tahliliy natijalari keltirilgan.

"Gidroturbina – o'z navbatida birlamchi gidravlik dvigatel bo'lib, gidravlik turbinaga uzatilayotgan suvning energiyasini o'zgartiruvchi mexanik energiyasiga o'zgartirib berish hisoblanadi. Bunda P_T – gidroturbinaning quvvati M_T gidroturbina momentining ω burchak tezligi (1) hosilasiga teng,

$$P_T = M_T \omega. \quad (1)$$

Suv sarf Q va bosim H o'zgarganda gidroturbinaning quvvati o'zgaradi. Gidroturbinaning quvvatini hisoblash ifodasi (2) quyidagicha

$$P_T = 9,81QH\eta_T, \quad (2)$$

bu yerda H – gidroturbinaga olib kelingan suvning bosimi m; Q - suv oqim sarfi $m^3/soat$; η_T -gidroturbinaning samaradorligi (foydali ish koeffitsiyenti).

Gidroturbina foydali ish koeffitsiyenti uning konstruksiyasi hajmiga bog'liq va uning yuklamasi o'zgarganda mos ravishda o'zgaradi. Diametri taxminan 1 m bo'lgan kichik gidroturbinalar uchun foydali ish koeffitsiyentining eng katta qiymati 0,88 – 0,91 ni tashkil qiladi.

P_T nominal quvvati – H_n nominal bosim va Q_n nominal suv oqim sarfi bilan aniqlanadi. P_E generatorning quvvati generator qisqichlari orqali o'lchanadi. O'rnatilgan rejimlarda generatorning quvvati generatordagi yo'qotishlarni hisobga olmagan holatda gidroturbinaning quvvatiga (3) teng,

$$P_E = P_T \eta_{gen}. \quad (3)$$

Gidroturbinalarni tanlashda uning ikki turga bo'linishiga e'tibor berish kerak:

oqim energiyasini kinetik shaklda ishlatadigan aktiv gidroturbinalar; reaktiv gidroturbinalar;

Reaktiv gidroturbinalar asosan oqim energiyasining potensial qismidan foydalanadi.

Aktiv gidroturbina xususiyati shundaki, ular normal atmosfera bosimida erkin oqimda ishlaydi. Soplo suvni kovshli shaklidagi ishchi g'ildirakka yo'naltiradi va soplodagi barcha energiya kinetik energiyaga aylanadi.

Kovshli gidroturbinani differensial tenglamalar asosidagi modellashtirishda gidroturbinaning dinamik xatti-harakatlarini tavsiflash uchun matematik tenglamalardan foydalanadi. Ushbu usulda gidroturbinaning muhim parametrlarini va ularning vaqt bo'yicha o'zgarishini ifodalovchi differensial tenglamalar tuziladi.

Odatda bu tenglama quyidagicha (4) ko'rinishga ega bo'ladi:

$$M = J \frac{d\omega}{dt} + M_{mex} + M_{pasayish}, \quad (4)$$

M - gidravlik moment, J - turbinaning inersiya momenti, ω - burchak tezligi,

M_{mex} - mexanik yuklama momenti, $M_{pasayish}$ - pasayish momenti (yo‘qotishlar bilan bog‘liq).

Oqim va bosim bog‘lanishi: turbina orqali o‘tuvchi suv oqimi va bosim o‘rtasidagi bog‘lanishni differensial tenglama orqali ifodalanadi.

Misol uchun, suv oqimi Q va bosim H o‘rtasidagi bog‘lanish (5):

$$Q = C_d A \sqrt{2gH}, \quad (5)$$

C_d - oqim koeffitsiyenti, A - suv oqimi yuzasi, g - erkin tushish tezlanishi, H - bosim (yoki suv sathi).

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda gidroelektrostansiyalar nazariyasida quyida keltirilgan umumiy qabul qilingan formulalar asosida gidroturbinalar matematik modeli tuziladi.

Gidroagregat bosimi quyidagi (6) tarkibiy qismlardan iborat:

$$H = H_H + \Delta H - h_{nom}, \quad (6)$$

bu yerda $H_H = const$ mikroGESning nominal bosimi, h_{nom} - suv o‘tkazgichidagi bosimning yo‘qolishi (7)-(8) larda keltirilgan,

$$\Delta H = -\frac{L}{gS} \frac{dQ}{dt}, \quad (7)$$

$$h_{nom} = A \cdot K_1 \cdot L \cdot Q^2, \quad (8)$$

bu yerda A – po‘lat quvurlar uchun qarshilik, K_1 - po‘lat quvurlar uchun A qiymatlariga tuzatish koeffitsiyenti.

Gidroturbina orqali suv sarfi yo‘naltiruvchi apparatning ochilishiga bog‘liq. Hidroturbinaning μ -nisbiy gidravlik qarshiligi quyidagi (9) bilan aniqlanadi,

$$\mu = \mu_{HA} - \mu_{sen}, \quad (9)$$

bu yerda, μ_{HA} - yo‘naltiruvchi apparat ochilishi natijasida gidravlik qarshilik; μ_{sen} – markazdan qochma kuchning ta’siri tufayli gidravlik qarshilik (10) ga teng,

$$\mu_{mqk} = k_{mqk}, \quad (10)$$

bu yerda $k_{mqk} \frac{\Delta Q}{Q_H \omega_H}$ - oqim koeffitsiyenti.

Shuningdek, gidroturbinaning quvvatini mexanik komponent orqali (11) yozish mumkin

$$P_T = M_T \cdot \omega. \quad (11)$$

Belgilangan rejimlarda $M_T = M_E$ holati kuzatiladi, bu holda (11) ifodani quyidagi shaklda yozamiz

$$P_T = M_E \cdot \omega, \quad (12)$$

$$M_T = \frac{9.81 \cdot Q \cdot H \cdot \eta_T}{n \cdot 9.55}, \quad (13)$$

$$Q = \frac{M_T \cdot \omega}{9.81 \cdot H \cdot \eta_T}, \quad (14)$$

$$n = \frac{9.81 \cdot Q \cdot H \cdot \eta_T \cdot 9.55}{M_T}, \quad (15)$$

Gidroturbina rotorining harakati quyidagi (16) shaklda ifodalanadi

$$M_T - M_E = J \frac{d\omega}{dt}. \quad (16)$$

Olingan tenglamalarga ko‘ra, kovshli gidroturbina modeli matematik ifodalar yordamida tuzilgan.

Bunda gidroturbina elementlari suv sarfi, oqim koeffitsiyenti, suv o‘tkazgichlaridagi yo‘qotishlar, o‘zgarish momentlari, gidroturbina quvvat

komponenti, gidravlik qarshilik markazdan qochma kuchning ta'siri tufayli gidravlik qarshilik o'zgarishi, po'lat quvur qarshiliklari o'z aksini topgan bo'lib shu matematik model parametrlarini hisobga olgan holda asinxron generatorining matematik modeli ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning **“MikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorini modelashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida mikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorni differensial tenglamalar tizimlari yordamida tavsiflashning klassik usuli eng umumlashtirilgan usul bo'lib hisoblanadi. Ob'ektning matematik modeli uning idealizatsiyasi hisoblanadi, shuning uchun tenglamalarni tuzishda va vaqtinchalik jarayonlarni ko'rib chiqishda “idealizatsiya qilingan” ob'yekt bilan bog'liq umumiy qabul qilingan cheklovlar va taxminlar qo'llaniladi.

Gidroturbina matematik ifodalarini hisobga olgan holda asinxron generator matematik (17)- (19) ifodalar orqali bog'lanishlarga keltirib olinadi

$$P_m = P_T \cdot \eta_T \cdot \eta_u \quad P_G = P_m \cdot \eta_g, \quad (17)$$

$$M_g = \frac{P_n \cdot 10^3}{\omega}, \quad (18)$$

$$\omega = \frac{n_g}{9.55}. \quad (19)$$

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda asinxron generatorni qo'zg'atuvchi kondensator batareyasini tanlash quyidagi (20) ifoda yordamida amalga oshiriladi

$$C = \frac{Q}{2\pi f U^2}, \quad (20)$$

$$Q = 2\pi f \cdot C U^2, \quad (21)$$

Kondensator toki quyidagi (22) ifoda yordamida aniqlanadi

$$I_c = C \cdot \frac{dU}{dt}. \quad (22)$$

Lozim bo'lsa, yanada ko'p omillarni hisobga olish mumkin, ammo bu differensial tenglamalar tizimini yechishni ancha murakkablashtiradi va yechimning vaqtini oshiradi. Shu munosabat bilan qidiruv ixtisoslashtirilgan dasturlarga o'tkaziladi.

Tenglamalar tizimi davriy va kompleks koeffitsiyentlardan iborat bo'lmay, yechimlar kvazigarmonik va garmonik funksiyalar bilan tavsiflanadi. Asinxron generator sig'imli qo'zg'alishi d-q koordinatalar sistemasidagi kompleks shakldagi tenglama (23) bilan tavsiflanadi:

$$\begin{cases} (p - i\Omega)^2 x_m i_0 + (p + i\Omega)^2 x_{1\sigma} i_2 + (p + i\Omega) r_1 i_1 + x_c i_0 = 0 \\ -x_c i_0 + (p + i\Omega)^2 x_{Ln} i_n + (p + i\Omega) r_n i_n + x_{cn} i_n = 0 \\ p x_{2\sigma} i_2 + r_2 i_2 + p x_m i_0 = 0 \\ i_1 + i_2 = i_2 \\ i_n + i_c = i_1, \end{cases} \quad (23)$$

bu yerda p - farqlash operatori; i_1, i_2, i_n, i_c, i_0 , mos ravishda stator, rotor, generator yuklama, qo'zg'alish sig'imi, magnitlanish toklari; r_1, r_2 - stator va rotor fazalarining aktiv qarshiligi; x_{1s}, x_{2s} - stator va rotor fazalarining oqish induktiv reaktivligi; x_m - o'zaro induktiv qarshiligi; x_c, x_{Ln}, x_{cn} - reaktiv qarshiliklar.

Yuqoridagi matematik modeldagi i_c -ni matematik ifodasi quyidagicha (24)

$$I_c = \frac{U_0 \cdot \cos \alpha}{X_c}, \quad (24)$$

bu yerda U_0 - tiristordan o'tayotgan kuchlanish α -tiristorning ochilish burchagi X_c - kondensatorning reaktiv qarshiligi.


Uch fazali generator uchun kuchlanish tenglamalari tizimi (24) bilan aniqlanadi

$$\begin{cases} \frac{d\psi_A}{dt} + r_S i_A = U_A \\ \frac{d\psi_B}{dt} + r_S i_B = U_B \\ \frac{d\psi_C}{dt} + r_S i_C = U_C \\ \frac{d\psi_r}{dt} + r_r i_r = 0 \end{cases}, \quad (25)$$

bu yerda $\psi_{A,B,C}$ (ψ_r) - stator (rotor) fazasining to'liq magnit oqimi; $i_{A,B,C}$ (i_r) - stator (rotor) fazasidagi toki; $r_{A, B, C}$ (r_r) - stator (rotor) fazasining qarshiligi; $U_{A, B, C}$ - stator fazalaridagi kuchlanish qiymati. Birinchi uchta tenglama $U_{A, B, C}$ stator fazalarining kuchlanishini tavsiflaydi, ikkinchisi esa $U_r=0$ rotorning shartli tenglamasini to'liq magnit oqim va fazadagi tok orqali tavsiflaydi.


MikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorning nominal yuklama bilan ishga tushish vaqtidagi chiqish kuchlanishini 1-2-raslarda keltirilgan.

Droop nazorati - parallel ishlaydigan generatorlar o'rtasida yuklamani taqsimlash va tizim barqarorligini saqlash imkonini beruvchi boshqarish usuli. U tizim chastotasi yoki kuchlanishidagi o'zgarishlarga javoban generator chiqishidagi o'zgarishlarga va kondensator tokining o'zgarishi hisobiga asoslanadi. MikroGESlarda qo'llaniluvchi kondensator elementlari yordamida qo'zg'atishli asinxron generatorning kompyuter yordamidagi dinamik ish rejimlarini tadqiq qilish asnosida tahliliy natijalarini xarakteristikalar orqali ifodalash uchun avvalo II bobda keltirib o'tilgan kovshli gidroturbinaning hamda asinxron generatorning differensial tenglamalari, matematik tavsifi, matematik modeli va strukturaviy sxemalaridan foydalanilgan holda, Matlab dasturi yordamida, imitatsion model ishlab chiqildi va shu imitatsion modeldan foydalanib avtonom mikroGESlarda qo'llaniluvchi kondensator elementlari orqali qo'zg'atiladigan asinxron generatorning turli dinamik ish rejimlarini energetik ko'rsatkichlari aniqlandi.



1-rasm. MikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorini nominal yuklama bilan ishga tushishdagi boshqaruv sxemasi quyidagilardan tashkil topgan;


- 1-taxogenerator, 2-asinxron generator, 3₀-qo'zg'otish kondensator elementlari, 3- kondensatorlar
- 4-tiristorlar, 5-diodlar, 6-filtrlovchi kondensator, 7-tranzistorlar, 8-kuchlanish datchiklari,
- 9-boshqaruv qurilmasi, 10-taxogenerator signali, 11-impuls faza boshqarish tizimi, 13-uch fazali uzgichlar;



2-rasm. Droop boshqaruv metodikasining kuchlanishlar tushuvini usuli yordamida rostdash algoritmi

MikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorini nazorat qilish algoritmi quyidagilarni o'z ichiga oladi ω – gidroturbinani aylanish tezligi, n_r -rotor aylanishlar soni, Q_0 – boshlang'ich qo'zg'atish uchun kerak bo'lgan reaktiv quvvat, C_0 – qo'zg'atish uchun kerak bo'lgan kondensator sig'imi, U_0 – boshlang'ich qo'zg'atishda hosil bo'ladigan kuchlanish, I_0 – boshlang'ich qo'zg'atishda statorda hosil bo'ladigan tok, $\cos\varphi$ – quvvat koeffitsiyenti, m -fazalar soni.


Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek ishlab chiqilgan imitatsion model yordamida aniqlangan tahliliy xarakteristikalari quyidagi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. MikroGESlarda qo‘llaniluvchi asinxron generatorining ishga tushish vaqtidagi chiqish kuchlanish xarakteristikasi

Yuqoridagi 3-rasmda keltirilgan xarakteristikadan ma’lumki U_0 -ishga tushish kuchlanishi [V], $U_{dyn, min}$ -o‘tkinchi jarayon vaqti minimal kuchlanishi, δU_{dyn} -yuklama pasayishida kuchlanishning o‘tkinchi og‘ishi U_{nom} – voltmetr ko‘rsatkichi, ifodalangan.

MikroGESlarda qo‘llaniluvchi asinxron generatorini nosimmetrik ish rejimi vaqtidagi chiqish kuchlanishini Adaptiv boshqaruv metodikasining o‘zini roslash usulini qo‘llash hisobiga boshqarish algoritmi va boshqarish sxemasi 4-rasmda keltirilgan.




4-rasm. Avtonom mikroGESlarda qo‘llaniluvchi asinxron generatorni nosimmetrik ish rejimi vaqtidagi chiqish kuchlanishlarini boshqarish sxemasi

Asinxron generator chiqishida kuchlanishlar nosimmetriyasi sezilsa Adaptiv boshqaruv metodikasini o‘z-o‘zini roslash usuli yordamida generator chiqishidagi 4-[VD] yarim o‘tkazgich elementlaridan oldingi kuchlanishlar hamda rostlagich 6-tranzistor kalitlari chiqishi yoki iste’molchilar ulangan vaqtdagi kuchlanishlar taqqoslanadi. Aytaylik farq $U_a=220$ V, $U_b=205$ V, $U_c=200$ V ekanligi aniqlanadi

so'ng rostlagich qurilmasiga qayta rostdash buyruq beradi. 7-kuchlanish datchiklari orqali 8-boshqaruv qurilmasiga doimiy signal uzatib turiladi.


MikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorini nosimmetriya ish rejimidagi chiqish kuchlanishini Adaptiv boshqaruv metodikasining o'z-o'zini rostdash usulini imitatsion modeli yordamida olib borilgan tahlillar asosida quyidagi natijalarga erishilgan ya'ni birinchi navbatda asinxron generatorini stator fazalaridagi kuchlanishlarning o'zgarish xarakteristikasi aniqlanganligini quyidagi 5-rasmda kuzatishimiz mumkin.



5-rasm. Avtonom mikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorining nosimmetrik yuklama holatidagi kuchlanishlar tushuvi (a) va qayta tiklanish xarakteristikasi (b)

5-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, bu holatda kuchlanishlar tushuvi dastlab $U_0 = 220 [V]$ ga teng bo'lganligi ma'lum, so'ngra nosimmetrik yuklama ulangan vaqtda esa kuchlanish dinamikasi $U_{\text{din, min}} = 78 [V]$ bo'lganligi $\delta U_{\text{din}} = 64\%$ ga farq qilishi holati ma'lum bo'ladi. Yuzaga kelayotgan o'tkinchi jarayon vaqti $t = 0,18$ sekundni tashkil qilyapti va fazalararo kuchlanish o'zgarishini qayta tiklanishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi $U_{\text{nom}} = 220 [V]$ bo'lganligi ma'lum bo'ladi.

6-rasmda MikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorni o'ta yuklama ish rejimini boshqarish sxemasi keltirilgan




6-rasm. MikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorni o'ta yuklama ish rejimini boshqarish sxemasi:

yukalma toki I_n hosil bo‘ladi bu o‘z navbatida $Q_n = 3U_n I_n \sin\varphi$ ifodasi berilyapti, faza kuchlanishi, chastota, tokni nominal holatda ta‘minlash uchun kondensator qurilmalari yordamida reaktiv quvvatni uzatish kerak bo‘ladi, $Q_k = Q_n - Q_0$ holatda bo‘ladi va bundan o‘zgartirish kerak bo‘lgan C miqdori topiladi.

PID boshqaruv metodikasini Ziegler Nikolas usuli yordamida generator chiqishidagi 4-[VD] yarim o‘tkazgich elementlaridan oldingi kuchlanishlar hamda rostlagich 6-[VT] tranzistor kalitlari chiqishi yoki iste‘molchilar ulangan vaqtdagi kuchlanishlar taqqoslanadi, aytaylik farq $U_a=210$ [V], $U_b=220$ [V], $U_c=205$ [V] ekanligi aniqlandi, so‘ng rostlagich qurilmasiga qayta rostdash buyruq beradi 7-kuchlanish datchiklari orqali 8-boshqaruv qurilmasiga doimiy signal uzatib turiladi. Kuchlanish datchiklaridan olingan signal yana bir bor taqqoslanadi qachonki nominal kuchlanish $U_n=220$ [V] ga yetganida KIM (kenglik impulsli modulyatsiya) orqali avtonom tarmoqqa uzatib beradi.

MikroGESlarda qo‘llaniluvchi asinxron generatorini o‘ta yuklama ish rejimidagi chiqish kuchlanishini PID boshqaruv metodikasining Ziegler-Nikolas usuli imitatsion modeli yordamida olingan natijalar 8-rasmda keltirilgan.



8-rasm. Avtonom mikroGESlarda qo‘llaniluvchi asinxron generatorining o‘ta yuklama ish rejim holatidagi kuchlanishlar tushuvi (a) va qayta tiklanish xarakteristikas (b)

Bunda nominal yukalama ostida ishlab turgan vaqtda $U_0=222$ [V] ga teng, o‘ta yuklama ulangan vaqtda kuchlanishlar o‘zgarishi $U_{din, min}=109,0$ [V] bo‘lganligi $\delta U_{din} = 51\%$ farq qilishi holati ma‘lum bo‘ladi. Yuzaga kelayotgan o‘tkinchi jarayon vaqti $t=0,13$ sekundni tashkil qilyapti va tarmoqdagi fazalararo kuchlanish o‘zgarishini qayta tiklanishini $U_{nom}=220$ [V] bo‘lganligi ma‘lum bo‘ladi.

Dissertatsiyaning “MikroGESlarda qo‘llaniluvchi asinxron generatorida o‘tkazilgan tajribalar” deb nomlangan to‘rtinchi bobida Ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda mikroGES asinxron generatorni asosiy texnik ko‘rsatkichlari asosida mikroGES qurilmasini tayyorlash va ishga tushirish hamda amaliyotga tadbiq etishdan oldingi tajriba sinovini o‘tkazish bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Tajriba uchun 4A80A6Y3 markadagi qisqa tutashtirilgan asinxron motor tanlab olingan bo‘lib, uning parametrlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan

Asinxron generator	Quvvati, kW	Nominal yuklamada			M_n	M_{min}	M_{max}	I_n	n aly/min
		Sirpanish, %	FIK, %	$\cos\varphi$					
4A80A6Y3	0,75	0,8	69,5	0,74	2,0	1,6	2,2	5	1000

Generator rejimida rotor tezligi asinxron elektr mashinaning magnit maydon aylanish tezligiga mos kelishi kerak. Buning uchun asinxron elektr mashinaning rotor aylanish tezligi nominal aylanish tezligidan 5-10% yuqori tezlikka chiqishi zarur bo‘ladi. Shunday qilib, generator rejimida asinxron elektr mashinasining rotori 1050 ayl/min tezlik bilan ta‘minlanishi kerak.

Avtonom mikroGES asinxron generatori namunaviy qurilmasi ishlab chiqilgan. Ushbu namunaviy qurilma yordamida tajriba sinovi olib borilgan jarayon quyidagi 9-rasmda keltirilgan.

Tajriba davomida kovshli gidroturbinani suv energiyasi hech qanday to‘g‘on hosil qilmasdan daryo o‘zanidan oqib o‘tayotgan suvni faqatgina turbina orqali sekundiga 4 m/sek tezlikda gidroturbinani mexanik energiya bilan ta‘minlash orqali asinxron mashinani aylanuvchi rotor qismiga nominal aylanish tezligidan 5-10% yuqori bo‘lgan tezlik bilan ta‘sir etib tarmoqdan oluvchi reaktiv quvvatni kondensator elementlari orqali ta‘minlab asinxron mashinasini generator rejimida ishga tushirish imkoniyatini yaratadi.




9-rasm. Avtonom mikroGES yordamida tajriba-sinov o‘tkazish jarayoni

Avtonom kovshli mikroGESlarda qo‘llaniluvchi asinxron generatorning 10-rasm keltirilgan tajriba-sinov qurilmasi ishlab chiqilgan ushbu tajriba-sinov qurilmasi yordamida ishlab chiqarilayotgan elektr energiyani dinamik ish rejimlarida yuzaga keluvchi holatlar bo‘yicha tajribalar olib borildi ushbu tajribalar asosida quyidagi xarakteristikalar olingan. Natijalar hisob-kitoblar asosida tarmoqda o‘tkinchi jarayon vaqtida yuzaga keluvchi elektrik parametrlar ya‘ni kuchlanish o‘zgarishi aniqlandi. Ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasini holat xarakteristikalarini CASSY Lab 2

dasturi yordamida tahlil qilingan.


MikroGESlarda qo‘llaniluvchi asinxron generatorining nominal yuklama bilan ishga tushish vaqtidagi chiqish kuchlanishini fizik modeli natijaviy xarakteristikalari keltirilganligini quyidagi 10-rasmda ko‘rishimiz mumkin.



10-rasm. Avtonom mikroGESlarda qo‘llaniluvchi asinxron generatorni ishga tushish xarakteristikasi

10-rasmda keltirilgan xarakteristikada $[U]$ kuchlanishni $[t]$ vaqtga bog‘liqlik grafigi keltirilgan bo‘lib bu foydali ish koeffitsiyentida biz asinxron generatorni ishga tushirishdan yuklama rejimiga o‘tishdagi o‘tkinchi jarayon $t=0,18$ sekund vaqt talab etilayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu holatda $U_0=206$ [V] ekani va kuchlanish o‘zgarishi $U_{dyn,min}=164$ [V] hamda $\delta U_{dyn}=27,5\%$ ni tashkil etgan yuklama ulangandan so‘ng kuchlanish nominal holatga ya‘ni $U_{rec}=237$ [V] kelganligini ko‘rishimiz mumkin.

MikroGESlarda qo‘llaniluvchi asinxron generatorini nosimmetrik yuklama ish rejimi vaqtidagi fizik modeli yordamida olingan natijalar 11-rasmda keltirilgan.




11-rasm. Avtonom mikroGESlarda qo‘llaniluvchi asinxron generatorni nosimetriya ish rejimi vaqtidagi chiqish kuchlanishi (a) va rostlangan kuchlanish xarakteristikasi (b)

Avtonom mikroGESlarda nominal kuchlanish $U_0=237$ [V] bo‘lsa o‘tkinchi

jarayon vaqtida esa $U_{\text{dyn, min}} = 91,6$ [V] gacha o'zgarishi kuzatiladi ushbu holatda, $\delta U_{\text{dyn}} = 56,9\%$ ga farq qilishi aniqlandi, hamda kuchlanishlar tushuvi $U_{\text{rec}} = 220$ [V] ni tashkil etadi. Nominal yuklamaga o'zgarish vaqti esa $t = 0,18$ sekundni tashkil etdi.

MikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorining o'ta yuklama ish rejimi vaqtidagi chiqish kuchlanishini fizik model yordamida olingan natijaviy xarakteristikalari 12-rasmda keltirilgan.



12-rasm. Avtonom mikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorni o'ta yuklama ish rejimi vaqtidagi (a) va rostlangan kuchlanish xarakteristikasi (b)

Bu holatdagi yuklama ish rejimidan o'ta yuklama ish rejimiga o'tishdagi stator faza kuchlanishlarini $U_0 = 226,6$ [V] o'tkinchi jarayon vaqtida $U_{\text{dyn, min}} = 112,7$ [V] gacha o'zgarishi, $\delta U_{\text{dyn}} = 53\%$ farq qilishini hamda $U_n = 188$ [V] ga pasayishini aniqlandi va $t = 0,13$ sekundda qayta tiklanishini $U_n = 220$ [V] ko'rish mumkin bo'ladi.

Avtonom mikroGESlarda qo'llaniluvchi kondensator orqali qo'zg'atiluvchi asinxron generatorining dinamik ish rejimlaridagi chiqish kuchlanishini taklif etilayotgan boshqaruv usullarini qo'llash O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tasarrufidagi "AGRO PRODSTAR" fermer xo'jaligida joriy etilgan. Natijada biz taklif etayotgan mikroGES qurilmasi orqali elektr energiya bilan ta'minlash hisobiga 109,0 mln. so'm iqtisodiy samaradorlikka erishildi.

XULOSA

"MikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorini dinamik ish rejimlarini modelashtirish" mavzusi bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Avtonom mikroGESlarda qo'llaniluvchi kondensator orqali qo'zg'atiladigan asinxron generatorlarni qo'zg'atuvchi kondensator tokini o'zgartirish hisobiga dinamik ish rejimlaridagi chiqish kuchlanishlarini boshqarishni tavsiflovchi klassik matematik modeli takomillashtirildi. Ushbu matematik model asosida turli dinamik ish rejimlarining imitatsion modeli hamda boshqaruv algoritmini ishlab chiqish imkonini berdi.

2. MikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorining nominal yuklama bilan ishga tushish vaqtidagi chiqish kuchlanishi $\delta U_{dyn}=27,5\%$ ga o'zgarishi aniqlangan. Droop boshqaruv metodikasining kuchlanishlar tushuvini rostlash usuli yordamida boshqaruv algoritmi va sxemasi ishlab chiqilgan. Natijada shu sxema asosida $t=0,18$ sekund vaqt davomida faza kuchlanishlari nominal $U_n=220$ [V] ni ta'minlashga erishilgan.

3. MikroGESlarda qo'llaniluvchi asinxron generatorini nosimmetrik ish rejimi vaqtidagi chiqish kuchlanishlari $U_a=220$ [V], $U_b=200$ [V], $U_c=205$ [V] ekanligi aniqlangan va Adaptiv boshqaruv metodikasining o'zini rostlash sozlagichlari usulini qo'llash hisobiga rostlash davomiyligi $t=0,18$ sekund davom etgan hamda nominal $U_n=220$ [V] kuchlanishni ta'minlashga erishilgan.

4. Kondensator orqali qo'zg'atiladigan asinxron generatorning o'ta yuklama ish rejimi vaqtidagi kuchlanishlar tushuvi $U_{tush}=17\%$ ga o'zgarishi aniqlangan. Faza kuchlanishlarini rostlash imkonini beruvchi PID boshqaruv metodikasining Ziegler-Nikolas usulini qo'llash natijasida $t=0,13$ sekundda faza kuchlanishini barqarorlashtirishga erishilgan.

5. Avtonom mikroGESlarda qo'llaniluvchi kondensator orqali qo'zg'atiluvchi asinxron generator va uning boshqaruv qurilmasining tajriba-sinov namunasi hamda imitatsion modeli ishlab chiqilgan. Natijada asinxron generatorning turli dinamik ish rejimlaridagi chiqish kuchlanishni rostlanishini baholash imkoniyati yaratilgan.

6. "O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari" kengashi tasarrufidagi "AGRO PRODSTAR" fermer xo'jaligida avtonom mikroGES va ularda qo'llaniluvchi kondensator orqali qo'zg'atiladigan asinxron generatorining dinamik ish rejimlaridagi chiqish kuchlanishini takomillashtirilgan boshqaruv usullari joriy etilgan. Natijasida avtonom iste'molchilarni mikroGES orqali elektr energiyasi bilan ta'minlash hisobiga 109,0 mln so'm iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.15/31.08.2022.Т.73.07 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ

МАТКОСИМОВ МУХАММАДСОДИК МАХАМАДХАШИМ УГЛИ

**МОДЕЛИРОВАНИЕ ДИНАМИЧЕСКИХ РЕЖИМОВ РАБОТЫ
АСИНХРОННОГО ГЕНЕРАТОРА МИСРОГЭС**

**05.05.02 – Электротехника. Электрические станции, системы. Электротехнические
комплексы и устройства**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за В2023.4. PhD/Т3943.

Диссертация выполнена в Андижанском машиностроительном институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tstu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель: **Бердиев Усан Турдиевич**
кандидат технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Бедрицкий Иван Михайлович**
доктор технических наук, профессор

Шавазов Абдулатиф Ачилович
кандидат технических наук, с.н.с.

Ведущая организация: **Джизакский политехнический институт**

Защита диссертации состоится «__» _____ 20__ года в __ часов на заседании Научного совета DSc.15/31.08.2022.Т.73.07 при Ташкентском государственном транспортном университете (Адрес: 100167, г.Ташкент, ул. Железнодорожников, 1. Тел: (99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного транспортного университета (регистрационный номер №__) (Адрес: 100167, г. Ташкент, ул. Железнодорожников, 1. Тел: (99871) 299-01-00; факс: (99871) 293-57-54).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 года.
(реестр протокола рассылки № __ от «__» _____ 2025 года).

Р.В. Рахимов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

Я.О. Рузметов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

Р.М. Мирсаатов
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, д т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире растущая индустриализация и увеличение потребностей человечества приводят к стремительному росту спроса на электроэнергию. Этот процесс отчетливо наблюдается в таких развитых странах, как Россия, США, Норвегия, Франция и Германия. Постоянный рост спроса вызывает не только необходимость увеличения объемов производства электроэнергии, но и приводит к возникновению различных проблем в системах её передачи. Решение этих проблем требует эффективного использования возобновляемых источников энергии, а также мини- и микроГЭС. Производство электроэнергии из таких устойчивых источников и её направленность на удовлетворение потребностей автономных потребителей является одной из актуальных задач современности.

В мире с каждым днем растет потребность в электроэнергии, что делает актуальным вопрос производства энергии по доступным и качественным технологиям. С момента изобретения электроэнергии и до настоящего времени спрос на неё непрерывно увеличивается, что усиливает значимость её производства. С этой точки зрения, наше научное исследование направлено на разработку простых и удобных методов производства электроэнергии. Это позволит снизить себестоимость электроэнергии, что, в свою очередь, будет способствовать увеличению количества микроГЭС (микрогидроэлектростанций) в нашей стране. При строительстве микроГЭС важными задачами являются предотвращение экологического ущерба водохранилищ, минимизация капитальных затрат на строительство станций, а также создание условий для быстрой окупаемости вложений. Эти вопросы являются актуальными и требуют внедрения в практику.

В нашей республике существуют проблемы бесперебойного снабжения электроэнергией различных потребителей. Именно поэтому строительство гидроэлектростанций невозможно, необходимо обновлять электросети, а в отдаленных районах местного населения, похоже, не хватает электроэнергии. Одним из важных вопросов является практическое применение электроэнергии, вырабатываемой на малых микроГЭСях, которые могут быть установлены на малых реках для обеспечения электроэнергией отдаленных населенных пунктов с большим расходом воды на склонах высот.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит решением задач, предусмотренных Законами Республики Узбекистана на 2022-2026 годы, включая 22-ю цель третьего раздела, озаглавленную «Ускоренное развитие национальной экономики и обеспечение высоких темпов роста», есть следующие фразы. Увеличение общей мощности гидроэнергетики до 4999 МВт к 2030 году, в том числе создание дополнительных 2311 МВт за счет общества и 615 МВт с участием частных инвесторов. Реализация следующих дополнительных перспективных проектов начиная с 2023 года. В соответствии с Приложением 4 приведен перечень оборудования, комплектующих изделий и запасных частей, необходимых для строительства и эксплуатации малых ГЭСов и предлагаемых к локализации на основе сотрудничества в 2023-2025 годах.

Указе Президента Республики Узбекистан № ПФ-60 от 28 января 2022 года «О новой стратегии развития Узбекистана на 2022 – 2026 годы», Постановление № PQ-2972 от 18 мая о мерах по организации деятельности акционерное общество «Узбекгидроэнерго». Настоящее диссертационное исследование служит в определенной степени обеспечению исполнения его решений и реализации задач, определенных в других нормативно-правовых документах, связанных с этой деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики: II. «Энергетика, энерго- ресурсосбережение».

